

BO‘LAJAK TASVIRIY SAN‘AT O‘QITUVCHILARI TOMONIDAN BADIY KONSTRUKTORLIK MAHORATNI O‘ZLASHTIRISH

Taganov Ravshanbek Otaboyevich

Uganch Davlat Pedagogika Instituti V.B.Dotsenti

Ollaberganova Gulora Xamidjon Qizi

Uganch Davlat Pedagogika Instituti O‘Qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘lajak tasviriy san‘at o‘qituvchilarining badiiy konstruktorlik mahorati va ko‘nikmalari auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda rivojlantirilishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Аннотация: В данной статье внимание акцентируется на развитие способностей и навыков художественного конструирования студентов во время внеаудиторных занятий.

Annotation: In given article the attention is accented on development of abilities and skills of art designing of students during outofclass lessons.

Kalit so‘z lar: badiiy- konstruktorlik, intellektual ijodiy, abstrakt, ob‘ektiv, vizual, konstruktiv fantastik, intuitiv, metaforik, improvizatsiyaviy.

Ключевые слова: художественно конструкторское мастерство, интеллектуально творческое умение, абстрактную, объективные, визуальные, конструктивно фантастические, интуитивное, метафорические, импровизационные умения.

Keywords: artdesign skill, intellectual creative skills, abstract, objective, visual, constructive fantastic dive, metaphorical, improvisational skills.

Bo‘lajak tasviriy san‘at o‘qituvchilari tomonidan maktabda va hozirgi vaqtda oliy o‘quv yurtlarida egallangan badiiy konstruktsiyalash mahoratlari, ko‘nikmalar va

qobiliyatlar auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda rivojlantiriladi va takomillashtiriladi.

Badiiy- konstruktorlik mahorat - mavjud bo'lgan tasavvurlar asosida vujudga keladi va badiiy konstruktsiyalash bo'yicha intellektual ijodiy vazifalar (fikrlashning har xil turlarida) bajariladi. Bunda avvaldan mavjud bo'lgan eng samarali metodlar, usullar, uslublar va metodik orientirlardan foydalanadi. Badiiy konstruktsiyalash fikrlashning quyidagi: g'oyaviy ma'noviy, obrazli, mantiqiy analitik, amaliy va vizual-ko'rish, kompozitsiyaviy, hududiy, hajmiy-hududiy hamda badiiy, ijodiy tasavvur va tasavvuriy, intuitiv, metaforik, improvizatsiyaviy turlariga bo'linadi .

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida fikrlash: tasavvuriy- abstrakt va ob'ektiv idrok qilish asosidagi, vaziyatli - vizual asosdagi, o'z tasavvurining obrazini yaratishni, uncha ham real bo'lmagan manzarani idrok qilishdagi konstruktiv- fantastik, xususiy - fantastik g'oya kabi quyidagi intellektual-ijodiy mahorat va qobiliyatlarning qanday shakllanishi asosida ko'riladi. Topshirilgan ijodiy tasavvurga qaratilgan (masalan, o'z rasmida aks ettirilish bilan musiqa vositasidagi) ijodiy- fikrlash qobiliyat qanday shakllanishini, badiiy-konstruktorlik bilimlar va badiiy-konstruktorlik mahorat asosidagi intellektual-ijodiy vazifalar, badiiy-konstruktsiyalash yechimining misollarini tasavvur etamiz.

Abstrakt va ob'ektiv idrok qilish asosidagi - fantaziyalar. Fantaziyaviy fikrlash quyidagi tizimda bo'ladi: "Taassurot = xotira- tajriba = fikrlash - hayol = anglash = qayta tiklash (rasmda) = o'z -o'zini muhokama etish". Rorshax metodi bo'yicha "siyoh dog'lari" metodikasidan foydalaniladi. Maqsad: amorf dog' konturlarida ma'lum bo'lgan ob'ektlar bilan iloji boricha ko'proq o'xshashliklarni aniqlashdir. Talabalarni ob'ektiv idrok qilish va sub'ektiv anglash tarzda dadil xayol surishga (hattoki, noreal fantaziyaviy obrazlar kelib chiqaradi) yo'naltiriladi. Oddiy nuqta bilan fantastik transformatsiya o'tkazishda nuqta metodikasidan foydalaniladi. Natijada, grammatik nuqtalar va ko'p nuqtalar; tugma, kichkina sharcha, koptoqcha, katta shar, Yer, Quyosh, qora teshik cheksizlikning dialektik obrazi hosil qilinadi. Tabiiyki, umumlashtirish natijasida oddiy nuqtadan konkret narsa fantastik abstraktga aylandi. "Tasavvur – obraz"

formulasi isbotlandi. Badiiy konstruktsiyalash jarayonida xayol surishning aynan shunday mahorati zarur.

Vizual asosdagi vaziyatli fikrlash. 12 ta bitta soʻz dan iborat boʻlgan quyidagi yozuvli vaziyatli rasmchalar nomlari metodi bilan faollashtiriladi: bir soʻz li nom, koʻp soʻz li nom (12 soʻz lardan foydalangan holda). Masalan, kichik manzara: xiyobondagi oʻrindiqlarda gazeta oʻqiyotgan odam, yonidan bitta erkak (yoʻlovchi) uning doʻstona salomiga hech qanday eʼtibor bermay oʻtirganga (oʻqiyotgan) salom berib oʻtib ketmoqda. 12 bir soʻz li yozuvlar - tanlab olish yoʻli bilan:

- | | |
|-----------------|----------------------|
| 1. Gazeta | 7. Piyoda |
| 2. Salomlashish | 8. Xato |
| 3. Yaxshilik | 9. Diqqatsizlik |
| 4. Xiyobon | 10. Kitobxon |
| 5. Dam olish | 11. Parishonxotirlik |
| 6. Gʻurur | 12. Xafalik |

Kichik manzara talabalar tomonidan bir soʻz da shunday nomlanadi: “Yaxshilik”, “Eʼtiborsizlik” va “Xafalik”. Demak, uning emotsional psixologik kontekstiga urgʻu beriladi. Koʻp soʻzli nom: “Salomlashish va xafalik”, “Eʼtiborsizlik yoki gʻurur?”, “Yaxshilik va eʼtiborsizlik”. Bu yerda axloqiy etik aspekt pozitsiyalashtiriladi. Talabalar shu tarzda badiiy konstruktsiyalash yechimda albatta zarur boʻlgan syujet-vaziyatli aspektni oʻz lashtiradilar.

Oʻz tasavvuring obrazini yaratish.

1-topshiriq. Emotsional-hissiy va fantastik tasavvur kuchi bilan, aslida yoʻq boʻlgan yangi obrazni yaratish. Obraz hudud va vaqtda koʻrinadigan shaklda boʻlishi lozim, fantastik bir butunga (rasmda) birlashtirilgan fantastik kompozitsiyalar boʻlishi maqbul.

2-topshiriq: “Moʻjizalar mamlakati obrazlari”. Fantaziyalash va assotsiat-siyalash orqali oʻsimlik, hayvonot va oʻlik tabiat dunyosi vositasida oʻz buyumlaridan kompozitsiyaviy kombinatsiyalar tuzish. Maqsad: ob’ektlarni tanlash, kombinatorlik usullar vositasida fantastik obrazlarni shakllantirish, rasm mazmunini tushuntirish. Yaratilgan obrazlarning “personal” obrazi natijalari quyidagilar: “Odam obrazidagi

kapalak”, “Dengiz- obrazi: sokin, to’lqinlanuvchi, vahimali- mavj uruvchi”, “Qush-baliq-odam”, “Parallel dunyoda”, “Fantastik tush” va h.k.. Ularda katta fantaziya, keng intellektual xarakter va an’anaviy kompozitsiyaviy stereotip chegarasidan chiqish mavjud. Syujetlar: statik, dinamik, strukturaviy munosabat turlaridan iborat obrazlar asosida tashkil topadi. Fantastik- vaziyat bu aktsentuatsiyasining vositasi sifatida “figuraviy sintez” kuchlantiril-ganidir. Hamma narsa fikrlash yordamida boshqariladi, obrazning qat’iy kompozitsiyasi va mazmundorligi ayon bo’ladi. Mavjud bo’lmagan kompleks obrazni yaratish g’oyasi badiiy-konstruktsiyalash jarayonida juda zarur bo’lgan talabalarning fantaziyaviy qobiliyatini maksimal darajada faollashtiradi.

Konstruktorlik- fantastik idrok qilish

-uncha real bo’lmagan suratda tasvirlangan.

1-topshiriq. “O’rdak qayiqda shlyapada” rasmi taklif etiladi. O’rdak obrazidagi real va fantastik syujet to’g’risida mulohaza yuritish.

Savollar: 1. Nima tasvirlangan? 2. Haqiqatga yaqinmi yoki fantastikmi? 3. Nimasi o’ylab chiqilgan? 4. Nima uchun haqiqatga yaqin detallar rasmni fantastik deb hisoblashga halaqit bermaydi?

Talabalar xulosalari: fantastik obrazdagi real detallar xalaqit bermaydi, aksincha, ular uning noreal obrazining yorqinligini kuchaytiradi.

2-topshiriq. Ko’rsatilgan ob’ektlar (qushcha, ilon) bilan fantastik rasmlarning eng ko’p sonini yaratish.

Natija: “Mumkin bo’lmagan do’stlik”, “Ilon-qushlar alyansi”, “Oldindan mo’ljallangan turli vazifalar”, “Detallar bilan almashishi” va b. mavzular bo’yicha rasmlar yaratish.

3-topshiriq. Topshiriq murakkablashadi: g’ayrioddiy kompozitsiyali (rasmda) fantastik obrazning badiiy konstruktsiyasini yaratish, obraz mazmuni va konstruktorlik yechimi mohiyatidan foydalanish (uni tushuntirish)ga tayyor bo’lish.

Natijalar: “Erning ingrashi” rasmlar obrazlari: yig’layotgan, azoblangan Yer boshqa sayyoralarga qo’lini uzatmoqda, “Qizil kitob”ga kiritilgan hayvonlar xori o’zining qutqarilishiga madhiya kuylamoqda, “Oydagi uchrashuv”: kosmonavtlarning Oydagi oyliklar bilan muloqot qilishi va b.

Izoh: Eng yorqin rasmlar jamoaviy tarzda mualliflar ishtirokida o'rganiladi va muhokama etiladi.

1, 2, 3 topshiriqlar bajarilishining borishi, natijalari va muhokamasi ustidan kuzatishlarni jamlagan holda xulosalar chiqaramiz va ular bilan talabalarni tanishtiramiz. Topshiriqlarni bajarish natijasida talabalarda fantazyaviylik va ijodkorlik faollashdi, murakkab obrazlarni yaratishga qiziqish paydo bo'ldi, obrazning formal konstruiranishiga intilish kuzatiladi, fantaziya va ijodiy tasavvurga bo'lgan tendentsiya ko'zga tashlanadi. Bu esa badiiy konstruktsiyalashda katta ahamiyatga egadir. Strukturaviy jihatdan bog'langan, funktsiyaviy jihatdan umumiy bo'lgan ko'p kompaktli ob'ektlarning kontaktli joylashuvi, ularning distantli joylashuvi, kompozitsiyaviy usulining tanlanishi, obrazlarning kompozitsiyaviy mosligi, ularning mazmunan uziga xosligi va

ma'noviy yuzi kabi obrazlarga murojaat qilish kuzatiladi.

Kontaktli joylashish kompozitsiyasida - gorizontal, vertikal, diagonal kabi joylashtirishlar qo'llaniladi. Bu yerda obrazlar, tasavvurlar va xotira, ularning strukturaviy -mazmuniy sifatlari va tipik xususiyatlari, ko'pincha yaxlit bo'ladi. Talabalarning intellektual-ijodiy ishlari natijasidagi bunday tasavvur obrazlari, asosan, dinamik syujetlarda joylashgan bo'lib, ular mazmunan turlicha yaratiladi. Demak, tasviriy san'atning bo'lajak o'qituvchilarida badiiy konstruktsiyalash fikrlash bo'yicha asoslanadi.

Xususiy- fantastik g'oya.

Badiiy-konstruktsiyalashda ob'ektning uning fantastik obrazi bilan suhbat o'tkaziladi va xususiy-badiiy fantastik obrazini (rasmda) yaratish taklif qilinadi.

Talabalarga o'z xususiy-fantastik g'oyasi to'g'risida o'ylanish va uning yaratilishini (tushuntirish) taklif etiladi. Keyin o'ylab ko'rish: jamoada fantastik g'oyalar vujudga kelishi mumkinmi?. Talabalar jamosida spontan-improvizirlangan g'oyalarning tug'ilishi bo'yicha praktikum o'tkaziladi. Maqsad: g'oyalar kompleksi bo'yicha xayol surish uchun oddiy jamoaviy-maishiy, potentsial-ijodiy vaziyatni yaratish. Ob'ekt-bitta talabaning orginal mualliflik sushkasi (ko'chma ma'noda). Vazifa: fantaziya va yumorni qo'shgan holda sushka o'yini turidagi muhokama qilinadi;

konstruktorlik-loyihaviy masalalar sifatida ifodalanishi mumkin bo'lgan kutilmagan g'oyalarning qanday vujudga kelishini, spontan ijodiy jarayonni ko'rsatiladi.

Demak, oddiy hayotiy vaziyatdagi xayol surish uchun maishiy sahnachaning improvizatsiyasi ishtirokchilari - talabalar guruhi; bitta talaba - ob'ekt, aniqrog'i uning o'z i tomonidan tayyorlangan sumkasi, nihoyatda, sig'imli va qulay, qaysiki, unda uning deyarli barcha elementlari funktsional jihatdan o'ylab ko'rilgan. Sumkaning muhokamasi boshlanadi, bunda suhbatdoshlar avvalo, o'z ining qoyil qolganligini aytadilar, keyin esa uni takomillashtirish to'g'risida o'z fikrlarini aytadilar. Buning ustiga o'z fikrini aytishlar tez ravishda, xuddi koptokni bir-biriga oshirishdek bajariladi. Gapirayotganning so'zini hech kim bo'lmaydi. Suhbatni olib borishda suhbatdoshlarning yuzlari jiddiy ko'rinishda bo'ladi

Buni foydasiz aql o'yini, improvizatsiyaviy mashq qilish deb nomlasa bo'ladi. Bunday oddiy tajriba talabalarni ahil ijodiy jamoada qiziqarli g'oyalarning kelib chiqishi mumkinligi to'g'risida ishonтиради.

Talabalar o'zining yetarli darajadagi chuqur badiiy konstruktorlik bilimlar va badiiy konstruktorlik mahoratlarini namoyon etishlari, badiiy konstruksiyalash masalalarini dadil-ijodiy, individual va jamoaviy tarzda hal qilishlari, dizaynerlik ijodining badiiy konstruksiyalash kontseptsiyasiga ega bo'lishlari, ma'no-mazmuniy yuki, kompozitsiyaviy tekisligi, chiziqlarining go'zalligi, yorqin obrazlilik va ifodali estetikasi bilan ajralib turgan to'laqonli, individual-original dizaynerlik mahsulotlarini yaratishlariga erishishlari zarur.

Tasviriy san'at bo'yicha bo'lg'usi o'qituvchilar, qaysi mazmun, qaysi shakl, qaysi metodlar, usullar, uslublar va vositalar bilan maktab o'quvchilarida badiiy-konstruksiyalashga bo'lgan qiziqish va qobiliyatni shakllantirishni bilishlari va o'z badiiy-konstruktorlik bilimlar va badiiy-konstruktorlik mahoratni bo'lg'usi pedagogik faoliyatga qaratishlari muhim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Дудецкий А.Я. Теоретические вопросы изображения и творчества. - Смоленск,- 1984.

2. Радчук Л.И. Основы художественного конструирования: Учебное пособие для вузов.- М.: "Легпромбытиздат", - 1989.
- 3.Родари Дж. Грамматика фантазии. Введение в искусство придумывания историй: Пер. с итальянского. - М.: "Прогресс", - 1988.
- 4.Саламатова С.М. Формирование у студентов конструктивных знаний и умений в процессе трудовой подготовки на художественно-графических факультетах педагогических институтов: Автореф. дисс. канд.пед.наук. -М., - 1989.
5. Soyibov T. Kompozitsiya.-Toshkent,-1999.